Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

BIZNES FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

XURSHID XUJAYEV
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi global integratsiyalashuvning kuchayishi sharoitida biznes faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Rivojlangan biznes muhiti yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholining bandlik darajasini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda tadbirkorlik subyektlarining kengayishi raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuni qayd etish lozimki, biznes faoliyatining faollashuvi davlat byudjetiga tushumlarning ko‘payishiga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, innovatsion g‘oyalar va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga zamin hozirlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga va tashqi omillarga qaramlikning kamayishiga olib keladi. Biznes subyektlarining eksport salohiyati ortishi esa mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliy amaliyotda biznes faoliyati rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda biznes faoliyatini rivojlantirishda qo‘shilgan qiymat zanjiridan samarali foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va bozor mavqeini mustahkamlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat zanjirining har bir bosqichini chuqur tahlil qilish orqali tadbirkorlar ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xomashyo ta’minotidan tortib tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan jarayonlarning uzviy bog‘liqligi biznes jarayonlarining barqarorligini ta’minlaydi. Qo‘shilgan qiymat zanjirning barcha bosqichlarida moliyaviy, texnologik va tashkiliy resurslarning uyg‘unlashuvi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etishimiz joizki, qo‘shilgan qiymat zanjiriga kichik va o‘rta biznes subyektlarining faol jalb etilishi iqtisodiyotda inklyuziv o‘sishni rag‘batlantiradi. Xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv xorijiy investitsiyalar va ilg‘or tajribalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali biznes subyektlari qo‘shilgan

Published: 05.06.2026

Cite this article: Xurshid Xujayev (2026). Biznes faoliyatini rivojlantirishda qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish yo‘nalishlari. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/856

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qiymat zanjirida samarali ishtirok uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu sababli xalqaro amaliyotda global qo‘shilgan qiymat zanjirida ishtirok etishni samarali tashkil etish hamda uning tarkibiy qismlarining o‘ziga xosliklarini aniqlash bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, 1-jadvalda keltirilgan global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish tizimidagi o‘rnini aniqlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

Global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari151


№	Qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari	Qamrab olinadigan asosiy tarmoqlar	Savdo darajasi	Mehnat intensivligi	Bilim intensivligi
1.	Xomashyo modeli	Qishloq xo‘jaligi, yoqilg‘i, foydali qazilmalar	Yuqori	Past	Past
2.	Mehnatga asoslangan xizmatlar modeli	Ulgurji va chakana savdo, transport va saqlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, shaxsiy xizmatlar, lizing	Past	Yuqori	Past
3.	Mehnatga asoslangan tovarlar modeli	To‘qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm mahsulotlari	Yuqori	Yuqori	Past
4.	Mintaqaviy qayta ishlash modeli	Oziq-ovqat va ichimliklar, metall mahsulotlari, rezina va plastmassa, shisha, sement va keramika, mebel	Past	Past	Past
5.	Bilimga	Ilmiy-tadqiqot, IT	Past	Past	Yuqori

151 Foreign Direct Investment and Global Value Chains // The World bank Group, 2021. – P. 33

	asoslangan xizmatlar modeli	xizmatlari, professional xizmatlar, ta’lim			
6.	Bilimga asoslangan tovarlar modeli	Avtomobilsozlik, transport uskunalari, kompyuter va elektronika, elektr mashina va jihozlar, kimyo va farmatsevtika	Yuqori	Past	Yuqori

Xomashyo modeli asosan qishloq xo‘jaligi, yoqilg‘i va foydali qazilmalar sektorlariga tayangan holda yuqori savdo darajasiga ega bo‘lsa-da, past bilim va mehnat intensivligi bilan tavsiflanadi (1-jadval). Mehnatga asoslangan xizmatlar modeli savdo darajasi nisbatan past bo‘lishiga qaramay, yuqori bandlik yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mehnatga asoslangan tovarlar modeli to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarida yuqori savdo faolligi hamda mehnat talabchanligi bilan ajralib turadi. Mintaqaviy qayta ishlash modeli asosan ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda savdo, mehnat va bilim intensivligi past darajada shakllanadi. Bilimga asoslangan xizmatlar modeli ilmiy-tadqiqot va IT sohalarini qamrab olib, yuqori intellektual salohiyatga tayanishi bilan iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi. Bilimga asoslangan tovarlar modeli esa avtomobilsozlik va elektronika kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarda yuqori bilim intensivligi va savdo salohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu modellarning har biri mamlakatlarning rivojlanish bosqichi, resurs bazasi va institutsional imkoniyatlariga mos ravishda shakllanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pincha xomashyo yoki mehnatga asoslangan modellardan boshlagan holda asta-sekin bilimga asoslangan modellarga o‘tishga intiladi. Shu bois global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari iqtisodiy siyosatni belgilash, sanoatni diversifikatsiyalash, uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim strategik vosita hisoblanib, investitsiyalar global qo‘shilgan qiymat zanjirini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirlarida ishtirok o‘rtasida bir-birini kuchaytiruvchi bir nechta o‘zaro bog‘liq jarayonlar mavjud (1-rasm). Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjiri o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy ta’sirlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, savdo oqimlarining kengayishi yetakchi kompaniyalarning ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtirok xarajatlarini kamaytirib, xorijiy investorlar uchun qulay kirish sharoitlarini yaratadi. Buning natijada boshlang‘ich investitsiyalar oqimi shakllanib, mahalliy ishlab chiqarish tizimining modernizatsiyalanishiga zamin hozirlanadi (1-rasm).



1-rasm. Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirining o‘zaro ijobiy ta’sirlari152

Ishlab chiqarish va faoliyatni boshqa hududga ko‘chirish xarajatlarining yuqoriligi yetakchi kompaniyalarni o‘z hamkorlarini ham mezbon mamlakatga jalb etishga undaydi. Bu jarayonda “ommaviy ergashish” effekti yuzaga kelib, xorijiy investitsiyalarning ketma-ket kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalar orqali ilg‘or texnologiyalar va boshqaruv tajribasining kirib kelishi mahalliy korxonalar salohiyatini oshiradi. Global qo‘shilgan qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashuv korxonalarning yuqori qo‘shilgan qiymatli bosqichlarga ko‘tarilishiga imkon yaratadi.

Yuqoridagilar asosida qayd etish lozimki, xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirlarining o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi, chunki savdo oqimlarining kengayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi hamda yetakchi kompaniyalarning bozorga kirish imkoniyatlarining yaxshilanishi dastlabki investitsiya oqimlarini shakllantirib, mahalliy sanoatning modernizatsiyalanishi va texnologik yangilanishiga mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, “ommaviy ergashish”

152 https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c9af0143184de77cb58ddd5adf024508-0350012021/original/Chapter-1-An-Investment-Perspective-on-Global-Value-Chains.pdf asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

effekti xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirishda muhim katalizator vazifasini bajaradi, ya’ni yetakchi kompaniyalarning o‘z hamkorlarini mamlakatga jalb qilishi natijasida sanoat klasterlari shakllanadi, ishlab chiqarish zanjirlari kengayadi va bilim hamda texnologiyalarning tezkor tarqalishi orqali korxonalarning samaradorligi hamda raqobatbardoshligi izchil ravishda oshib boradi. Shuni ta’kidlash joizki, global qo‘shilgan qiymat zanjirlarida yuqori bosqichlarga ko‘tarilish xorijiy investitsiyalardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liq, chunki investitsion resurslarni innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yo‘naltirish orqali milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti